

HUQUQIY TAFAKKUR DARG'ASI: AKADEMIK HOJI-AKBAR RAHMONQULOV**Ramiddinov Ramiddin Jaloliddinovich**

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 2-kurs talabasi.

BurxoniddinTSUL@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.19044918>

Davlatning qanday shakllanishi, uning qonunlari qay darajada insonparvar va adolatli bo'lishi bevosita shu jamiyatning intellektual elitasiga, o'z sohasining fidoiylariga bog'liqdir. Har bir sivilizatsiya o'zining huquqiy poydevorini qurar ekan, bu jarayonda yuzlab mutaxassislar ishtirok etadi, ammo ularning orasida shunday yorqin siymolar bo'ladiki, ularning g'oyalari va ilmiy salohiyati butun bir millatning asrlar davomida amal qiladigan huquqiy yo'nalishini belgilab beradi. O'zbekiston milliy huquqshunoslik maktabining shunday buyuk namoyandalardan biri, shubhasiz, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, yuridik fanlar doktori, professor, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" Hoji-akbar Rahmonqulovich Rahmonqulovdir.

1925-yilda tavallud topib, 2013-yilda olamdan o'tgan bu ulug'vor zotning qariyb to'qson yillik umri mamlakat tarixining eng murakkab, ziddiyatli va ayni paytda shonli davrlariga to'g'ri keldi. Akademik Hoji-akbar Rahmonqulov nafaqat huquqshunos olim, balki O'zbekiston fuqarolik huquqi (sivilistika) fanining asoschilaridan biri, mustaqil davlatimizning eng muhim huquqiy hujjatlari – Konstitutsiya, Fuqarolik va Oila kodekslarining me'mori sifatida tarix sahifalaridan mustahkam o'rin olgan.

Insonning dunyoqarashi va kasbiy missiyasi uning bolaligi va yoshligi o'tgan tarixiy sharoit bilan bevosita bog'liqdir. Hoji-akbar Rahmonqulov 1925-yilda ijtimoiy-siyosiy jihatdan g'oyat murakkab bo'lgan bir o'tish davrida dunyoga keldi. Bu yillar sovet hokimiyatining O'rta Osiyoda o'z ta'sirini o'rnatish, mulkdorlar qatlamini yo'q qilish va jamiyatni butunlay yangi, yot mafkura asosida qayta qurish davriga to'g'ri kelgan. Uning o'smirlik yillari 1930-yillardagi qatag'onlar, ziyolilarni ta'qib qilish kabi og'ir ijtimoiy fojialar davriga to'g'ri keldi. Bunday muhitda ulg'aygan yosh avlod yo mutlaq tobe bo'lishga, yoki adolat tushunchasining asl mohiyatini anglab, o'zligini saqlab qolishga harakat qilar edi. Yosh Hoji-akbar aynan ikkinchi yo'lni tanladi.

Uning yigitlik yillarida insoniyat tarixidagi eng daxshatli qirg'in – Ikkinchi jahon urushi boshlandi. Hoji-akbar Rahmonqulov millionlab vatandoshlari qatori frontga jo'nab, fashizmga qarshi qonli kurashlarda ishtirok etdi. Urush maydonlarida ko'rsatgan qahramonligi va o'z hayotini xavf ostiga qo'yib qilgan xizmatlari uning xarakterini po'latdek tobladi. Urush xandaqlarida, o'lim bilan yuzma-yuz kelgan soniyalarda u inson hayotining naqadar qadrligi ekanligini, urush va zo'ravonlik faqatgina adolatsizlik va qonunsizlik mahsuli ekanligini chuqur his qildi.

Ilmiy tadqiqotchilar va tarixchilar tahliliga ko'ra, aynan ikkinchi jahon urushidagi shafqatsiz tajriba ko'plab huquqshunoslarning dunyoqarashini o'zgartirgan. Frontdan omon qaytgan Hoji-akbar Rahmonqulov tinchlikni saqlashning va inson qadr-qimmatini himoya qilishning yagona sivilizatsiyalashgan yo'li bu – adolatli qonunlar tarmog'ini yaratish va uning ustuvorligini ta'minlash ekanligiga qat'iy ishonch hosil qildi. Ushbu ishonch uning keyingi butun hayotini huquqshunoslik ilmiga, xususan, insonlarning mulkiy va shaxsiy huquqlarini himoya qiluvchi sivilistika sohasiga bag'ishlashiga zamin yaratdi.

U adolat faqat qurol bilan emas, balki chuqur bilim, tafakkur va adolatli qonun hujjatlari orqali himoya qilinishi kerakligini o'z faoliyatining bosh mezoni qilib oldi.

Sovet sivilistikasi cheklovlaridan milliy huquq fani sari. Urushdan keyingi yillarda vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklash va ta'lim tizimini rivojlantirish muhim vazifa edi.

H.Rahmonqulov Toshkentdagi oliy ta'lim dargohida yuridik yo'nalishda tahsil ola boshladi. O'sha davrdagi sovet yurisprudensiyasi o'ta mafkuralashtirilgan edi. Davlatning iqtisodiyot va inson hayoti ustidan mutlaq nazorati ta'minlangan, "xususiy mulk" tushunchasi inkor etilgan va yovuzlik sifatida talqin qilingan bir muhitda fuqarolik huquqini o'rganish katta intellektual ehtiyotkorlikni talab etardi.

Hoji-akbar Rahmonqulov o'z ilmiy tadqiqotlarini boshlar ekan, u nafaqat sovet qonunchiligini, balki qadimiy Rim huquqini, klassik sivilistika asarlarini chuqur o'rganishga kirishdi. Chunki har qanday murakkab mulkiy munosabatlarning zamirida qadimiy Rim huquqining fundamental prinsiplari (masalan, mulkdorning o'z ashyosiga mutlaq egalik huquqi, shartnomalarning majburiyligi, zararni qoplash tamoyillari) yotishini u yaxshi bilar edi.

Aspirantura va doktorantura bosqichlarida olib borgan izlanishlarida u asosan majburiyat huquqi, xo'jalik shartnomalari hamda mulkiy munosabatlarni barqarorlashtirish masalalariga e'tibor qaratdi. Sovet tizimi doirasida bo'lsa-da, u davlat korxonalari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni qat'iy mantiqiy va huquqiy asosga solish, subyektlarning javobgarligini oshirish orqali adolatni ta'minlash yo'llarini qidirdi. Uning yozgan nomzodlik va yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyalari nafaqat O'zbekistonda, balki butun Sobiq Ittifoq huquqshunoslari tomonidan yuksak e'tirof etildi. Tez orada u mintaqaning eng peshqadam sivilist olimi va yirik huquqiy maktabning yetakchisi darajasiga ko'tarildi. Biroq uning asl ilmiy salohiyati va islohotchilik g'oyalari O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng to'laqonli yuzaga chiqdi.

1991-yilda O'zbekiston Respublikasi o'z davlat mustaqilligini e'lon qilishi bilan yosh davlat rahbariyati oldida o'ta murakkab masala – mamlakatning yangi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy yo'nalishini belgilab beruvchi Asosiy qonun, ya'ni Konstitutsiyani yaratish vazifasi turar edi. Bu shunchaki matn yozish emas, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning butunlay yangi falsafasini yaratish degani edi. Mustabid tizimdan qolgan huquqiy ongning rad etib, inson huquqlari va erkinliklariga tayangan demokratik davlat asoslarini qurish ishiga mamlakatning eng salohiyatli olimlari jalb etildi. Bu tarixiy jarayonning eng oldingi saflarida qatnashish missiyasi akademik Hoji-akbar Rahmonqulov chekiga tushdi va konstitutsiyaning "Jamiyat va Shaxs" bo'limi ustoz rahbarlik qilgan ishchi guruh tomonidan tayyorlandi.

Konstitutsiyaviy komissiya a'zosi sifatida Hoji-akbar Rahmonqulov Asosiy qonun loyihasini tayyorlashda mislsiz nazariy bilimlarini, amaliy tajribasini va xalqaro tajribaga tayangan tahliliy qarashlarini ishga soldi. U o'zining tadqiqotlari va muhokamalardagi ishtiroki orqali sovet modelidagi "Davlat hamma narsadan ustun" degan dogmani parchalab, insoniyat sivilizatsiyasining eng ilg'or tamoyili bo'lmish "Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyatdir" degan tamoyilni milliy qonunchilikka olib kirdi.

Akademik Rahmonqulovning Konstitutsiyaviy islohotlardagi asosiy konseptual g'oyalari quyidagilardan iborat edi:

Mulk shakllarining tengligi va xususiy mulk daxlsizligi: Sovet davrida faqat davlat mulki ulug'langan bo'lsa, H. Rahmonqulov qat'iylik bilan xususiy mulkning daxlsizligi, uning iqtisodiyot taraqqiyotidagi o'rni va mulkdor huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini

Konstitutsiya darajasida mustahkamlashni taklif etdi. Bu O'zbekiston kelajakda erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishi uchun eng asosiy fundamental zamin bo'ldi.

Inson va fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari kafolati: U har bir shaxsning mulkdor bo'lish, o'z mehnati natijalaridan erkin foydalanish va tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqlarini xalqaro standartlarga mos ravishda shakllantirdi.

Fuqarolik jamiyati institutlari: Jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari kabi nodavlat tuzilmalarning davlat boshqaruviga qonuniy ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini ilgari surdi.

Uning g'oyalari va huquqiy yechimlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi talablariga to'la mos kelar edi. Hoji-akbar Rahmonqulovning hissasi tufayli O'zbekiston Respublikasining 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasi nafaqat davlatning, balki har bir insonning o'zini o'zi erkin namoyon qilishi uchun xizmat qiladigan mukammal hujjatga aylandi.

Bozor iqtisodiyotining huquqiy poydevori: Fuqarolik kodeksining yaratilishi.

Siyosiy mustaqillik iqtisodiy mustaqillik va tizimli islohotlar bilan mustahkamlanmasa, uning umri qisqa bo'lishi tarixdan ma'lum. 1990-yillarning o'rtalariga kelib O'zbekiston o'zining mustaqil iqtisodiy yo'lini belgilab olishi, sarmoya jalb qilishi va bozor mexanizmlarini ishga tushirishi kerak edi. Ammo buning uchun xususiy munosabatlarni, oldi-sotdini, korporativ boshqaruvni va majburiyatlarni tartibga soluvchi yaxlit huquqiy mexanizm yo'q edi. Eski tizim qonunlari bozor sharoitida mutlaqo ishlamas edi. Ana shunday pallada mamlakatning yangi "Bozor konstitutsiyasi" deb ataluvchi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini yaratish vazifasi paydo bo'ldi va bu ulkan ishning boshiga sivilistika maktabi asoschilaridan biri Xoji-akbar Rahmonqulov keldi.

Fuqarolik kodeksi loyihasini ishlab chiqish nihoyatda og'ir, intellektual jihatdan mashaqqatli jarayon hisoblanardi. Chunki minglab moddalardan iborat bu hujjat inson tug'ilishidan to vafotiga qadar bo'lgan mulkiy munosabatlarni o'z ichiga olardi. Akademik Rahmonqulov rahbarligidagi olimlar guruhi Germaniya, Fransiya (Napoleon kodeksi), Niderlandiya, Shveysariya va Yaponiya kabi taraqqiy etgan davlatlarning fuqarolik huquqi normalarini chuqur qiyosiy tahlil qildilar. Ammo xorijiy modellarni shunchaki ko'chirish mamlakat iqtisodiyotiga zarar keltirishi mumkinligini anglagan olim, bu qoidalarni O'zbekistonning o'tish davri xususiyatlari, xalqning mentaliteti va iqtisodiy imkoniyatlariga uzviy moslashtirdi:

Huquqiy Institut (Yo'nalish)	Sovet Davridagi Holati	Mustaqillik Davrida H. Rahmonqulov Kiritgan O'zgarishlar (Yangi Model)	Iqtisodiyotga Ta'siri
Mulk huquqi	Asosan davlat va kolxoz-kooperativ mulki. Xususiy mulk inkor etilgan.	Xususiy mulk tan olindi, himoyaga olindi va daxlsizligi ta'minlandi. Davlat va xususiy mulk tenglashtirildi.	Tadbirkorlik muhiti yaratildi, xorijiy sarmoyalar kela boshladi.
Shartnoma tuzish	Rejali iqtisodiyot, shartnomalar	Shartnoma erkinligi prinsiplari – bozor talabiga	Bozor narxlari va talab-taklif mexanizmi

Huquqiy Institut (Yo'nalish)	Sovet Davridagi Holati	Mustaqillik Davrida H. Rahmonqulov Kiritgan O'zgarishlar (Yangi Model)	Iqtisodiyotga Ta'siri
	yuqoridan "buyruq" asosida tuzilgan.	ko'ra ixtiyoriylik va raqobat ustuvorligi joriy etildi.	ishga tushdi.
Meros huquqi	Merosga qoldiriladigan mulk miqdori qat'iy chegaralangan edi.	Mulkni, shu jumladan biznes, korxona aksiyalari va ko'chmas mulkni cheklovsiz meros qilish imkoni yaratildi.	Avlodlararo kapital yig'ish va sulolaviy bizneslar rivojlanishi boshlandi.

Oila huquqi: An'analar va xalqaro standartlar uyg'unligi. Jamiyat barqarorligi uning asosiy hujayrasi hisoblangan oilaning huquqiy va ma'naviy mustahkamligiga tayanadi. Hoji-akbar Rahmonqulov oilaviy munosabatlarni tartibga solish sohasida ham novator olim hisoblanadi. 1998-yilda Oila kodeksini ishlab chiqish jarayonida u an'anaviy o'zbek oila modelini asrab-avaylash hamda zamonaviy huquqiy tendensiyalarni o'zaro uyg'unlashtirish kabi og'ir masalaga yechim topishi zarur edi.

Sharqona oilalardagi o'ziga xos hurmat, keksalar qadri, farzandlar oldidagi yuksak mas'uliyat hissi uning e'tibor markazida turardi. Shu bilan birga, olim qonunchilikni gender tengligi, ayollar va bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilish bo'yicha ilg'or xalqaro konvensiyalar darajasiga olib chiqdi.

Xalqaro xususiy huquq: O'zbekistonni global olam bilan bog'lagan ko'pri.

Akademik Rahmonqulov faoliyatining eng yorqin va murakkab yo'nalishlaridan biri bu – Xalqaro xususiy huquq (XXH) sohasiga asos solishidir. Global iqtisodiyotga integratsiya bo'lish, transmilliy korporatsiyalar bilan savdo aloqalari o'rnatish va davlatlararo investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy masalalarni hal etish mustaqillikning ilk yillaridagi eng katta muammolardan biri edi.

Hoji-akbar Rahmonqulov mamlakat yurisprudensiyasiga "Kollizion normalar" (turli davlatlar qonunchilik tizimlarining to'qnashuvini hal etuvchi qoidalar) mexanizmini kiritdi.

Uning rahbarligida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining maxsus bo'limi hamda "Chet el investitsiyalari to'g'risida", "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qator fundamental qonunlar ishlab chiqildi.

Buning amaliy natijasi va jamiyatga foydasi shundan iborat ediki, dunyoning yirik kompaniyalari (investorlar) O'zbekistonga kirib kelar ekan, bu yerda huquqiy bo'shliq yoki himoyasizlikni emas, balki xalqaro arbitraj standartlariga mos keladigan ishonchli, shaffof qonunchilik bazasini ko'rdilar. Iqtisodiyot sohasidagi tahlilchilarning ta'kidlashicha, xorijiy sarmoyalarning oqimi asosan barqaror huquqiy maydon mavjudligiga bog'liqdir va ushbu maydonni minalardan tozalab, ishonchli yo'lakka aylantirishda akademik Rahmonqulovning ko'p yillik mehnatlari yotibdi.

Sivilistika maktabi va talabalarga berilgan falsafiy-huquqiy saboqlar. Olim o'z ortidan qoldiradigan eng buyuk yodgorlik bu faqatgina u yozgan kitoblar emas, balki u yetishtirgan shogirdlar va iste'dodli izdoshlardir.

Hoji-akbar Rahmonqulov Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) yuridik fakulteti hamda Toshkent davlat yuridik instituti (hozirgi universitet) faoliyatining eng oldingi saflarida turib, minglab yoshlarga saboq berdi. U ko'plab magistrlar, fan nomzodlari (PhD) va fan doktorlarini (DSc) tarbiyalab yetishtirdi. "Rahmonqulov sivilistika maktabi" O'zbekiston intellektual maydonida o'ziga xos noyob hodisaga aylandi. Uning shogirdlari hozirgi kunda Oliy Majlis palatalarida, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Adliya vazirligi tizimi hamda yirik xalqaro kompaniyalarda mamlakat iqtisodiyoti va qonunchiligi rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda. Ushbu maktabning buyuk namoyondalari orasida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Davlat va huquq instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar doktori, professor Omonboy Oqyulov, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi boshqarma boshlig'I, yuridik fanlar doktori, professor Komil Rashidov turli yillarda TDYUning vaqtincha rektori vazifasini bajargan, hozirda esa ilmiy ishlar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor Islombek Rustambekovlar bordir.

Qolaversa, ustozning ilmiy faoliyati bilan birgalikda, o'z oilasiga ham yetarlicha e'tibor qarata olganliklarini e'tirof etish joizdir. Sababiki, ustoz davlat arbovlarini tarbiya eta oldi, jumladan ustozning katta farzandi bo'lmish Mir-Akbar Rahmonqulov turli yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy xavfsizlik Kengashining kotibi, Prezident huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. Undan tashqari, ustozning qizlari TDYU Xalqaro xususiy huquq kafedrasida katta o'qituvchisi bo'lmish Nilufar Rahmonqulov esa ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanib, insonlarga ilm ulashish yo'lida otalarining ishlarini davom ettirmoqdalar.

Milliy tildagi yuridik adabiyotlar bazasining yaratilishi: Mustaqillikning dastlabki yillarida mutaxassislar oldida turgan jiddiy to'siq yuridik fanning asosiy manbalari asosan rus tilida ekanligi edi. Huquqni o'z ona tilida chuqur anglash, yuridik atamalarni o'zbek tiliga moslashtirish vazifasi dolzarb edi. X. Rahmonqulov va uning izdoshlari tomonidan yozilgan "Fuqarolik huquqi", "Xalqaro xususiy huquq" kabi darsliklar, minglab sharhlar va monografiyalar o'zbek tilidagi yuridik terminologiyani boyitdi. Talabalar murakkab doktrinalarni o'zbek tilida o'qish va tushunish baxtiga muyassar bo'ldilar.

Xotira va yuksak e'tirof. Jamiyat va davlat buyuk xizmatlarni munosib e'tirof etishni o'zining burchi deb biladi. Akademik Hoji-akbar Rahmonqulovning milliy qonunchilikni rivojlantirishdagi davrni yorituvchi faoliyati yuksak baholanib, davlatning ko'plab unvon va mukofotlariga sazovor bo'lgan. Xususan, milliy xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda, harbiy burchni yoki xizmat burchini ado etish vaqtida ko'rsatgan mardlik va jasoratlari uchun "Jasorat" medali taqdirlandi. Qolaversa, uning ilmiy ishlari, talabalar tayyorlashdagi fidoiyligi uchun unga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" yuksak davlat unvoni berilgan. Respublika jamoatchiligi, ilmiy elita u kishining qoldirgan merosini muntazam ravishda e'zozlab keladi. Uning 2015-yilda tavalludining 90 yilligi va 2020-yilning sentabr oyida tavalludining 95 yilligi mamlakat ilmiy dargohlarida va markaziy nashrlarda alohida ilmiy-amaliy tadbirlar, maqolalar va esdaliklar orqali keng ko'lamda nishonlandi.

Huquq fani – doimiy rivojlanishda bo'lgan tirik organizmdir. Ammo har qanday o'zgarishlarga qaramay, uning barqaror tayanch nuqtalari, prinsiplari mavjud. Hoji-akbar Rahmonqulovning ilmiy g'oyalari faqat o'tgan asr oxiri yoki mustaqillikning dastlabki yillari uchun xizmat qilib qolmadi.

Aksincha, bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni, elektron tijoratni, transmilliy kompaniyalar ishtirokidagi sarmoyaviy kelishuvlarni huquqiy jihatdan tartibga solishda ham sivilistika maktabining tayanch normalari olimning asarlaridan olinmoqda.

Yirik sivilist olim, o'zbek sivilistika maktabining asoschisi va serqirra faoliyat egasi Hojiakbar Rahmonqulovich Rahmonqulov o'zbek huquqshunosligi tarixida nafaqat kitoblar, jild-jild hujjatlar muallifi, balki qonun ustuvorligi va adolat g'oyasi orqali butun bir jamiyat hayotini ijobiy tomonga o'zgartira olgan mutafakkir sifatida yashab qoladi.

Ikkinchi jahon urushining dahshatli qonli maydonlaridan tortib, eng qiyin o'tish davri sinovlarigacha mardona bosib o'tgan bu inson – jamiyatni barqaror qilishning yagona yo'li mustahkam insoniy huquqlar, daxlsiz xususiy mulk va adolat ekanligini isbotlab ketdi.

Mustaqil O'zbekistonda tadbirkorlik erkinligi ta'minlanar ekan, fuqarolar o'z huquqlarini sud orqali qat'iy himoya qilar ekan, yosh avlod ona tilida eng murakkab huquqiy bilimlarni egallar ekan, bularning barchasida akademik Hojiakbar Rahmonqulov va uning ortidan qolgan munosib shogirdlari, fidoyi farzandlarining zahmatli mehnatlari o'z aksini topgan. Davlat miqyosidagi bu xizmatlar xalqimiz, talaba yoshlar, huquqshunoslik va ilmiy salohiyatini o'rganayotgan tadqiqotchilar uchun betakror ibrat maktabi, mamlakatning kelajakka tomon rivojlanishi uchun bitmas-tuganmas ma'naviy-huquqiy meros bo'lib qoladi. U kishining ilgari surgan g'oyalari zamonaviy davlatimizning huquqiy poydevorida mustahkam tamal toshi vazifasini abadiy o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustambekov I., Rahmonkulova N. “Akademik Xoji-Akbar Rahmonqulov: hayot va ijod yo'li” (2025) TSUL – Library <https://library-tsul.uz/category/hoji-akbar-rahmonqulov/>.
2. 'O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, huquqshunos olim, akademik, yuridik fanlar doktori Rahmonqulov Hojiakbar Rahmonqulovich muallifligidagi adabiyotlarning bibliografik ko'rsatkichi' (2025) TSUL – Library <https://library-tsul.uz/ozbekistonda-xizmat-korsatgan-fan-arbobi-huquqshunos-olim-akademik-yuridik-fanlar-doktori-rahmonqulov-hojiakbar-rahmonqulovich-muallifligidagi-adabiyotlarning-bibliografik-ko/>
3. 'O'zbekiston huquqshunoslarining sevimli ustози Hojiakbar Rahmonqulovni xotirlab' (6 May 2020) Zarnews.uz [\[https://zarnews.uz/uz/post/ozbekiston-huquqshunoslarining-sevimli-ustozi-hojiakbar-rahmonqulovni-xotirlab\]](https://zarnews.uz/uz/post/ozbekiston-huquqshunoslarining-sevimli-ustozi-hojiakbar-rahmonqulovni-xotirlab)
4. Nurmirezayev K., “Akademik Hoji-Akbar Rahmonqulov” (1925-2013)' (2 Sentabr 2023) O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA) https://uza.uz/oz/posts/tugilgan-kun-akademik-hoji-akbar-rahmonqulov-1925-2013_516592
5. “O'zbekiston huquqshunoslarining sevimli ustози Hojiakbar Rahmonqulovni xotirlab” (6 May 2020) Zarnews.uz <https://zarnews.uz/uz/post/ozbekiston-huquqshunoslarining-sevimli-ustozi-hojiakbar-rahmonqulovni-xotirlab>
6. professor Mir-Akbar Rahmonqulov haqida – O'zbekiston...' (13 Fevral 2026) Gazeta.uz <https://www.gazeta.uz/oz/2026/02/13/mirakbar-rahmankulov/>
7. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist Oqyulov Omonboy e'lon qilgan ilmiy ishlarning bibliografik ko'rsatkichi' (2025) TSUL – Library <https://library-tsul.uz/ozbekistonda-xizmat-korsatgan-yurist-oqyulov-omonboy-elon-qilgan-ilmiy-ishlarning-bibliografik-korsatkichi/>